

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11323192>

FINLANDIYA TA'LIM ISTIQBOLINING MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Turonov Dostonbek Murodqobulovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti 1-bosqich magistranti
dostonbekturonov.edu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori sifatli ta'lism berish va uning alohida bajarilishi natijasida xalqaro e'tirofga sazovor Finlandiya ta'lim tizimining muvaffaqiyatlariga sabab bo'lgan usullar va yo'naliishlar tahlil qilingan va ta'lim tizimimiz sifatini oshirish uchun qay jabhalarga nisbatan isloh qila olishimiz namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim sifatida, mustaqillik, o'qituvchilar malakasi va ta'limi, teng nufuzli maktablar, bepul xizmat, "ijobiy ajratish" metodi, til o'r ganish ixtiyoriligi, fanlar taqsimoti, kasb-hunar kollejlari.

СЕКРЕТЫ УСПЕХА ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЕРСПЕКТИВ ФИНЛЯНДИИ

Аннотация: В данной статье рассказывается о качественном образовании и его особенностях. В результате ее реализации были проанализированы методы и тенденции, которые привели к успеху международно признанной финской системы образования, а также представлены примеры того, как мы можем улучшить качество нашей системы образования.

Ключевые слова: как воспитание, самостоятельность, компетентность учителя и образование, школы равного престижа, бесплатное обслуживание, «метод позитивной сегрегации», факультативное изучение языка, распределение предметов, профессиональные колледжи.

SUCCESS SECRETS OF FINLAND'S EDUCATIONAL PROSPECTS

Abstract: This article provides high-quality education and its special as a result of its implementation, the methods and directions that led to the success of the internationally recognized Finnish education system were analyzed and what aspects we can reform in order to improve the quality of our education system examples are given.

Key words: as education, independence, teacher qualification and education. equally prestigious schools, free service. "Positive separation method, language learning voluntary, distribution of subjects, vocational colleges.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarorida keltirilgan:

Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda Finlandiyaning ta’lim sohasidagi ijobiy tajribasini O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga hamda Dasturga joriy qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin. Ushbu bandlarga muvofiq ta’lim tizimini o‘rganish, kadrlar malakasini oshirish va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimini o‘rganish, Finlandiyaning o‘qitish tizimidagi bir qancha yutuqlari va afzalliklarini tahlil qilgan holda milliy o‘qitish tizimiga asos tariqasida qayta takomillashtirish kabi asosiy masalalar ko‘rib chiqilgan [1].

Finlandiya o‘quvchilari bir necha yillar mobaynida PISA xalqaro baholash dasturi bo‘yicha 149 ta davlat orasida yetakchi o‘rinlarni egallab kelyapti. Bunday natija har soniyada taraqqiy etib kelayotgan davrda ta’lim sifati samaradorligi davlatning yuksak marralarga erishish yo‘lida muvaffaqiyat kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Prezidentimizning “Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi” degan ta’kidi ostida ta’lim sifatimizni takomillashtirish maqsadida qilishimiz zarur bo‘lgan say-harakatlar qanchalik muhim ekanini anglashimiz mumkin [2]. Shu jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida biz ham Finlandiya tajribasini ta’lim sifatini yanada oshirish maqsadida faoliyat jarayonidagi ta’lim muassasalarimizga isloh qila boshladik.

Asosiy qism. Fin ta’limi bolalarni jamiyatning yuqori axloqli a’zolari bo‘lib yetishishiga, hayot uchun kerakli bilim va mahoratlarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi hisoblanadi. Imtihonlarda qanday qilib yaxshi baho olish emas, asosan yangi narsalarni qanday qilib o‘rganish kerakligini o‘rgatadi. Finlar uchun xalqaro talabalarni baholash dasturi natijalariga qiziqish juda ham kam bo‘lganligi sababli 2000-yilda PISA xalqaro baholash dasturi o‘tkazilgunicha ular o‘zlarining bu darajada qobiliyatli ekanliklarini o‘zlari ham bilishmagan. Fin ta’lim uchun raqam bilan o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar umuman muhim emas, asosiysi insoniy jihatlar sanaladi. Sodda qilib aytganda, olim bo‘lish uchun emas, odam bo‘lish uchun harakat qilinadi. Davlatning asosiy o‘quv rejasiga asoslanib, har bir maktab o‘zining o‘quv rejasini ishlab chiqadi. Finlandiyada ta’lim tizimi shunday shakllanganki, har bir o‘quvchi o‘zining hayotiga va ta’limiga bog‘liq masalalarga ta’sir ko‘rsata oladi, ya’ni oldindan belgilab qo‘yilgan bir qolibga majburlanmaydi. Ular yoshlikdan mustaqil bo‘lib kamol topishiga sharoit yaratiladi. Mana shu jihat bilan Finlandiya ta’limi boshqa davlatlarnikidan farq qiladi.

O‘qituvchilar juda erkin bo‘lib, vaqtlarining kam qismini sinf xonalarida o‘tkazishadilar. Bundan tashqari ular vaqtlarini yangi dasturlar ishlab chiqarishga va

bolalarning o‘zlashtirishini tekshirishga sarflaydilar. Agar biror bir metodika foyda bermasa, boshqa o‘qituvchilar bilan jamoa tarzida o‘zaro maslahatlashib yangi usullarni sinab ko‘rishga haqqi bor. Bundan tashqari ular bolaning o‘zlashtirishiga qarab dastur o‘zgartirish yoki bolaning o‘zlashtirishini tekshirish yo‘llarini o‘zgartirishga haqlidirlar. Albatta, bunday erkinlik ota-onalarni xavotirga solishi mumkin, lekin Finlandiyada o‘qituvchilar allaqachon xalqning ishonchiga kirib bo‘lganlar. Maktab o‘qituvchilarning 85 foizi ish davomida malaka oshirish kurslari va har xil yangi mavzularda darslar oladilar [3]. Shuning uchun ham bu davlatda o‘qituvchi ta’limi juda rivojlanganligi va ta’lim sifatida yuqoriligi sababli ko‘plab mamlakatlar fin ta’lim tizimiga katta qiziqish bildirmoqda.

Mamlakatda o‘qituvchilarning yagona ro‘yxati bo‘lib har bir maktab mana shu ro‘yxatdan o‘qituvchi tanlaydi. Bu nima degani? Bola qayerda yashashidan qat’iy nazar, u chekka qishloqda bo‘lsin yoki shaharda bo‘lsin oladigan ta’lim sifatida bir-biridan deyarli farq qilmaydi. Bu jihatdan ham Finlandiya yuqori ko‘rsatkichlarga ega, ya’ni eng kuchli o‘quvchi bilan o‘zlashtirishi sust bo‘lgan o‘quvchilarning orasidagi farqi juda ham kam. 6 yoshli o‘quvchilarning 97 foizi maktabga boradilar va maktab bir yilda 190 kundan iborat [4]. Maktablarda ovqat, tibbiy xizmat va agar bola uzoqda yashasa taksi xizmati ham bepul beriladi va albatta, buning uchun belgilangan minimum masofa mavjud. Bolaning maktabda qanaqa ovqat yeyishi ota-ona tomonidan belgilanadi. Maktabda tayyorlanadigan bu ovqatlar go‘shtli, go‘shtsiz, laktosiz, glyutensiz bo‘lishi mumkin. Masalan, biror o‘quvchida laktogza qarshi allergiya bo‘lsa, mana shu bola uchun alohida laktosiz ovqat tayyorlanishi e’tiborga molikdir. Shu bilan birgalikda maktablarda xalqaro taomlar haftaliklari ham bo‘lib turadi va bunda turli mamlakatlarning milliy taomlaridan tayyorlaniladi. Bu milliy taomlar aynan bir mamlakat mutaxasis oshpazi tomonida tayyorlanmasada, boshqa mamlakatlar qadriyatlari, an’alarining ulug‘lanishidan va bunga katta qiziqish borligidan dalolat beradi

Maktablarda bolalar doimiy ravishda pediatr va tish doktorlari nazoratida bo‘ladi. O‘quvchilar uchun davonalish va muolaja har doim bepul. Yana shunisi ham ahamiyatlici, maktablar uchun umumiy forma yo‘q, chunki bu fin xalqi uchun o‘quvchining erkinligini cheklash hisoblanadi. Barcha maktablarda o‘quvchilar poyabzalsiz yurishadi va bu orqali o‘quvchilarning dars jarayonlarida erkinligi ta’minlanadi. Ota-ona uchun hech qanday xarajat yo‘q, faqatgina yilda bir marta sinf bilan rasmga tushganda mana shu rasmni sotib olishlari mumkin, maktabda o‘quvchilarning tahsil olishi uchun qolgan narsalarning barchasi maktab tomonidan beriladi.

O‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilarga alohida e’tibor beriladi. Buning sababi nafaqat maktablarda, balki oddiy hayotda ham barcha teng bo‘lishi lozim. Maktablarda “ijobiy ajratish” metodi mavjud bo‘lib, unda qiyin o‘zlashtiradigan, alohida e’tibor talab qiladigan yoki fin tilini bilmaydigan o‘quvchilarga yordam ko‘rsatiladi va buning uchun alohida davlat tomonidan mablag‘ ajratiladi. Misol tariqasida mana shu muammo yechimi uchun davlat tomonidan 1 yilda 47 ming yevro ajratilgan [3].

1-sinfda oddiy darslardan tashqari san’at, din va tikuvchilik mashg‘ulotlari ham olib boriladi. Tikish darslarida o‘g‘il bolalar ham qiz bolalar ham birday yangi bilimlarni o‘zlashtirsa, keyingi yuqori sinfga o‘tganida olib boriladigan duradgorlik darslarida ham o‘g‘il va qiz bolalar birdek bu hunarning saboqlarini o‘rganadilar. Din darslarida asosiy dinlardan biri tanlanadi yoki axloq darsi tanlanadi. Ingliz tili 3-sinfdan, shved tili 4-sinfdan, 5-sinfdan biologiya, kimyo, fizika, geografiya va tarix fanlari o‘tila boshlaydi. Agar chet ellik o‘quvchilar o‘z ona tilini o‘tilishini xohlasalar buni maktab mamuriyatidan talab qilishlari mumkin va maktab bu darsni tashkillashtirishi zarur hisoblanadi. Buning uchun belgilangan minimum raqam mavjud bo‘lib, bu darslar uchun kamida 3 o‘quvchi bo‘lishi kerak [3].

6-sinfda birinchi umumiy imtihon bo‘ladi va bu imtihon ixtiyoriy. 9-sinfdan keyin o‘qish majburiy emas, lekin bitiruvchilarning 90 foizi o‘sha yilning o‘zida umumiy ta’limda yoki kasb-hunar kollejlariда o‘qishni davom ettiradi. Qolgan 10 foizi esa bir yoki ikki yil dam olganidan keyin, agar xohlasalar o‘qishni davom ettirishlari mumkin. 9-sinfdan keyingi ta’lim va kasb-hunar kollejlari 3 yillik bo‘lib, umumiy ta’limda bolalarga yanada ko‘proq erkinlik beriladi, endilikda o‘quvchilar o‘zlarining dars jadvallarini tanlashlari mumkin bo‘ladi. Kasb-hunar yo‘nalishi ko‘proq ishlashga qaratilgan bo‘lib, ustoz va shogird metodiga asoslangan 9-sinf bitiruvchilarining 40 foizi mana shu yo‘nalishda davom ettiradilar [4]. Fin ta’limining ajoyib bir xususiyati borki, bola qaysi yo‘nalishda bo‘lishidan qat’iy nazar, qaysi bosqichda bo‘lishidan qat’iy nazar o‘zining yo‘nalishini o‘zgartirib, professorlikkacha borishi ham mumkin.

Xulosa. Yuqorida sanab o‘tgan tamoyillar Finlandiya ta’lim tizimida ijobjiy natija ko‘rsatayotganligi finliklarning yuksak dunyoqarashga ega ekanligining yaqqol timsolidir. O‘zbekistonda Finlyandiya ta’lim tizimini tatbiq etish va undan samarali natija olish uchun, avvalo, xalqimizning dunyoqarashini yanada rivojlantirishimiz, to‘g‘ri fikrlash qobiliyatini oshirishimiz kerak. Ana shundagina O‘zbekistonning ta’lim sohasiga sarflaydigan investitsiyalari o‘zining ijobjiy samarasini berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://abt.uz/blog/prezident-xalq-ta-limi-tizimidagi-muammolarvakamchiliklarni-ma-lum-qildi?ysclid=ldcwdxyyo3z362322428>
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –Toshkent: “ O‘zbekiston ”. 2021. 237-b.
3. Finlandiya maktablari haqida
<https://youtube.com/watch?v=IV9qIviarUQ&si=qt0VRrSU5ltCKtHb>
4. Ilkka Taypale. Finlandiyaning 100 ta ijtimoiy innovatsiyasi – Toshkent: “Sharq ”. 2019. 336-b.